



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 6 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 6

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№6 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-6>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич ЮРИДИК ТАЪЛИМНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИ ШАРОИТИДА «РАҚАМЛИ ҲУҚУҚ» (DIGITAL LAW) ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ.....	5
2. Aminov Dalerjon Alisher o'g'li O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AMALIYOT HAMKORLIGINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	34
3. Зулунов Махсудбек Махаммаджонович ФОНДЛАР МУЛКИНИНГ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ РЕЖИМИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ҲУҚУҚИЙ ТАБИАТИ.....	41
4. Азизов Иқболжон Гулямович ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССИДА ИШ ЮЗАСИДАН ХУЛОСА БЕРИШ УЧУН ИШТИРОК ЭТУВЧИ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ОРГАНИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ҲОЛАТИ.....	50
5. Жураев Анваржон Ильхомжон угли ПРАВОВАЯ ПРИРОДА МАХАЛЛИ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННЫХ ВИДОВ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	58
6. Алтиев Раззоқ Саидович ЖИНОЯТЛАРНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ, АҲАМИЯТИ, ТУРЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ.....	67
7. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР: ТУШУНЧА, ТАСНИФ ВА ЖИНОИЙ ЖАВОБГАРЛИК НОРМАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	79
8. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li JINOYAT KODEKSI UMUMIY VA MAXSUS QISMLARI NORMALARI RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....	88
9. Кахаров Фируз Елмуратович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҚЎШИМЧА ЖАЗОЛАР ТИЗИМИ: ҲУҚУҚИЙ ТАВСИФ ВА АМАЛИЙ ТАҲЛИЛ.....	98
10. Salaev Nodirbek Saparbaevich TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN'S PENAL ENFORCEMENT LEGISLATION: A NEW PARADIGM OF HUMANISM, REINTEGRATION AND INNOVATIVE PENITENTIARY POLICY.....	106
11. Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИ ОЛИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК.....	115
12. Adilxodjaev Sherzod Shuxratovich KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATINING DOLZARB MASALALARI: KORRUPSIYA TUSHUNCHASI VA ALOMATLARI.....	124



12.00.12-ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

Adilxodjaev Sherzod Shuxratovich,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktori

E-mail: a.surayyo.law@mail.ru

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATINING DOLZARB MASALALARI: KORRUPSIYA TUSHUNCHASI VA ALOMATLARI

For citation: Adilkhodjaev Sherzod Shukhratovich. CURRENT ISSUES IN ANTI-CORRUPTION POLICY: THE CONCEPT AND CHARACTERISTICS OF CORRUPTION. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 6.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21938766>

ANNOTATSIYA

Barcha davlatlar turli darajada korrupsiyaga moyil, shuning uchun samarali korrupsiyaga qarshi kurash siyosati milliy taraqqiyotning kalitidir. Maqolada "korrupsiya" atamasini ta'riflashga e'tibor qaratilgan va uning salbiy jihatlari, jumladan, davlat xavfsizligiga, inson huquqlariga zarar yetkazish va davlatga bo'lgan jamoatchilik ishonchini pasaytirish o'rganilgan. Korrupsiyaning xavfi shundaki, u har doim jamiyat manfaatlariga qarshi o'ta xavfli jinoyat hisoblanadi. Adabiyotlarni tah va o'z tadqiqotlari asosida muallif korrupsiya va uning xususiyatlari haqida o'z ta'rifini taqdim etadi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiya xususiyatlari, korrupsiyaga qarshi siyosat, islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash chorolari, muvofiqlikni nazorat qilish tizimi.

Адилходжаев Шерзод Шухратович,

Докторант Ташкентского государственного университета востоковедения

доктор философии по юридическим наукам (PhD)

E-mail: a.surayyo.law@mail.ru

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ: ПОНЯТИЕ И ПРИЗНАКИ КОРРУПЦИИ

АННОТАЦИЯ

Коррупции в той или иной степени подвержены все государства, поэтому эффективная антикоррупционная политика является залогом прогресса государства. В статье уделено особое внимание определению термина «коррупция», рассматриваются негативные стороны коррупции, в том числе урон безопасности государства, правам человека, подрыв веры общества в государства. Автор на основе анализа литературы и собственных исследований представляет авторское определение коррупции и признаки коррупции.

Ключевые слова: коррупция, признаки коррупции, антикоррупционная политика, реформы, антикоррупционная борьба.

Adilkhodjaev Sherzod Shukhratovich,

Doctoral candidate at Tashkent State University of Oriental Studies

ANNOTATION

Keywords: corruption, characteristics of corruption, anti-corruption policy, reforms, anti-corruption efforts.

Korrupsiyaga qarshi samarali kurashish uchun “korrupsiya” tushunchasini aniqlab olish, uning ilmiy, siyosiy mazmunini, shuningdek, alomatlarini ochib berish lozim. Shuning uchun biz ushbu tadqiqotni “korrupsiya” tushunchasini ochib berish, uni tahlil qilish va uning alomatlarini aniqlashdan boshlaymiz. “Korrupsiya” atamasining o‘zi lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “pora evaziga og‘dirish” degan ma‘noni anglatadi va amaldorlar, siyosatchilarni pora bilan o‘z tomoniga og‘dirish, davlat mablag‘larini o‘g‘irlash, va ularning davlatga zarar yetkazadigan jinoiy tuzilmalar bilan aloqalarini anglatadi. Yordamchi adabiyotlarda odatda “korrupsiya” tushunchasi ikkita tarkibiy qismga ajratiladi: 1) mansabdor shaxslar va jamoat arboblarning sotqinligi bilan ifodalanadigan davlatdagi iqtisodiy va siyosiy tizimlarning parchalanishi; 2) mansabdor shaxs tomonidan o‘z lavozimi bilan unga berilgan huquqlardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish bilan ifodalangan jinoyat [2]. Brockhaus va Efron ensiklopedik lug‘atida “korrupsiya” tushunchasi fransuzcha “carriere”, ya’ni karyera — “erishilgan mavqe” so‘zi bilan bevosita bog‘liq [3].

Adabiyotlarda “korruptsiya” tushunchasining turli xil talqinlari mavjud. Aksariyat mualliflar uning zamirida mansab vakolatini suiste’mol qilish yotadi deb hisoblab ushbu hodisani kengroq talqin qilishadi [4]. O‘z vaqtida siyosiy tafakkur klassigi, faylasuf va mutafakkir Jon Lokk ham korruptsiya hukumatning fundamental tamoyillari asoslarini buzadi, deb hisoblagan, agar hokimiyat tepasidagi shaxslarning xatti-harakatlari qonunlar va himoya qilish o‘rniga o‘z manfaatlarini qanoatlantirishga asoslangan bo‘lsa, aynan shuning o‘zi korruptsiyadir [5].

Korruptsiyaning mohiyatini ochib bergan holda shuni ta’kidlash kerakki, korruptsiyaviy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lib, bir tomondan, vakolatga ega shaxs, ikkinchi tomondan esa, amaldorni pora berish orqali o‘ziga og‘dirib, boylik orttirishni istagan manfaatdor tomon hisoblanadi, shuningdek, zarar yetkaziladigan yana bir tomon bor - bu xalq, davlatdir [6, 835 b.]. Boshqa bir nuqtai-nazarga muvofiq, korruptsiya - bu ikki tomonlama bitim bo‘lib, unga ko‘ra vakolat berilgan shaxs o‘z xizmatlarini noqonuniy ravishda “sotadi”, “xaridor” esa noqonuniy ravishda davlat tuzilmalariga kirish huquqini qo‘lga kiritadi va bundan o‘zining shaxsiy manfaatlari uchun foydalanadi [7, 21 b.]. Biz “korruptsiya - bu belgilangan qonunlar va qoidalarga zid ravishda mansabdor shaxs tomonidan o‘z hokimiyat vakolatlari va unga ishonib topshirilgan huquqlardan shaxsiy naf olish maqsadida foydalanish” degan fikrga to‘liq qo‘shilamiz. Korruptsiya, qoida tariqasida, deyarli har doim mansabdor shaxslarning poraga uchishi bilan bog‘liq [8, 37 b., 9, 799 b.]. Xitoylik tadqiqotchi Du Chjichjouning fikriga qo‘shilmasdan iloji yo‘q, u korruptsiya — ishonib topshirilgan hokimiyatni suiste’mol qilish yoki berilgan hokimiyatga lozim darajada ta’sir ko‘rsatmaslik, deb hisoblaydi, va uning fikriga ko‘ra, poraxo‘r shaxslar sirasiga nafaqat davlat xizmati tizimidagi mansabdor shaxslar, balki jamoat tashkilotlarida muayyan vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslar ham kiradi [10, 16 b.]. Korruptsiya obyekti bo‘lib esa alohida shaxslar yoki odamlar guruhlarining shaxsiy, noqonuniy manfaatlari bo‘lishi mumkin [11, 29]. Ushbu nuqtai nazarga qo‘shilgan holda, biz korruptsiyaga oid xatti-harakatlarni sodir etishning asosiy sababi — bu jamoat manfaatlariga zarar yetkazish yoki qonunni qo‘pol ravishda buzish bilan shaxsiy foyda olish ekanligini qo‘shimcha qilishimiz mumkin.

Jamoat-ijtimoiy ma’noda, korruptsiya - bu o‘z maqomi yoki haqiqiy mavqei tufayli jamoat resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, ulardan shaxsiy, tor guruh yoki korporativ maqsadlarda naf olish uchun foydalanadigan mansabdor shaxslarning jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan xatti-harakatlari hisoblanadi [12, 9 b.]. Shu bilan birga, bir qator mualliflar korruptsiya ayniqsa davlat apparatida xavfli deb mutlaqo to‘g‘ri hisoblashadi, u nafaqat butun davlat apparatini, balki jamiyatning barcha tuzilmalarini qamrab olgan holda, jamiyat hayotidagi normal, sog‘lom o‘zaro munosabatlarni buzib va ushbu o‘zaro munosabatlarni tor g‘arazli maqsadlarga bo‘ysundirgan holda keng tarqalib bormoqda. Korruptsiya - bu ijtimoiy hayotning barcha sohalariga “singib ketishga” intiladigan, ijtimoiy subyektlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy munosabatlarni amalga oshirishning qonuniy usullarini shaklan buzadigan tizimli hodisalar majmui. Shuning uchun korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatining asosiy vazifasi korruptsiyani milliy xavfsizlikka tahdid solmaydigan va jamiyat hayot faoliyatining asosiy sohalari ishlab turishiga katta ta’sir ko‘rsatmaydigan darajaga tushirishdan iborat [13, 139 b.].

Korruptsiya har doim jinoyat hisoblangan, u zang kabi davlatchilik ustunlarini yemiradi va zaiflashtiradi. Korruptsiya — bu har doim davlat xizmatiga, xususiy mulkka, jamiyat manfaatlariga qarshi qaratilgan o‘ta xavfli jinoyat bo‘lib, u mansabdor shaxslar tomonidan qonunni qo‘pol ravishda buzish bilan tavsiflanadi. Bu hodisaning xavfi nafaqat korruptsiya harakatining o‘zida, balki uning tarqalishida hamdir, chunki poraxo‘r davlat hokimiyati tizimida qanchalik yuqori mavqega ega bo‘lsa, u o‘z qilmishini shunchalik ko‘p odamlarga yuqtirishi mumkin. Bu bilan, bitta poraxo‘r butun bir tuzilmani korruptsiyaga o‘rgatishi mumkin va mazkur holatda u butun tanani zaharlaydigan saraton o‘smasi kabi olib tashlanishi kerak [14, 12 b.].

Korruptsiyaning eng xavfli jihatlaridan biri shundaki, ushbu salbiy hodisa oqibatida inson huquqlariga putur yetkaziladi va davlat huquqiy davlatchilikdan yiroqlashadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida: “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, deb e’lon qilinganini hisobga olsak, huquqiy davlat qurish mamlakatimiz uchun katta strategik ahamiyatga ega. Balki,

hozirgi vaqtda dunyoda huquqiy davlat etaloni yo'qdir, ammo usiz huquqiy davlat qurishning imkoni bo'lmagan tamoyillar mavjud. Huquqiy davlatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: birinchidan, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlarini ajratishni konstitutsiyaviy tarzda amalga oshirish va ular o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati; ikkinchidan, inson huquqlari ustuvorligi tamoyili, unga muvofiq davlatda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi amal qiladi; uchinchidan, barchaning qonun oldida tengligi tamoyili. Shuning uchun biz korrupsiya, birinchi navbatda, davlat va huquq asoslariga putur yetkazib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi o'ta xavfli harakat ekanligi to'g'risidagi fikrga qo'shilmiz. Korrupsiyaning ijtimoiy asosi bo'lib mansabdor shaxsning shaxsiy manfaatlari va jamiyatning xalq manfaatlari o'rtasidagi ziddiyat hisoblanadi, bu konstitutsiyaviy tuzumga putur yetkazadi [14, 6-7 b.].

Inson huquqlarining buzilishi va aynan shu bilan davlat siyosiy tuzumiga bo'lgan ishonchga putur yetkazishi korrupsiyaning eng salbiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Akademik A.X. Saidov ta'kidlaganidek, avvalo, korrupsiya natijasida jamiyat ta'lim, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, yo'llar va boshqa infratuzilmalarni qurishda ijtimoiy foydali maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan zarur moliyaviy resurslardan mahrum bo'ladi. Bundan tashqari, korrupsiya odil sudlovga eng katta halokatli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni korrupsiyaga duchor bo'lgan sudlar inson huquqlarini himoya qilish va kafolatlash hamda adolatni o'rnatish o'rniga qonunga xilof ish tutadilar, bu bilan davlatning adolatligiga bo'lgan odamlar ishonchiga putur yetkazadilar. Shu bilan birga, olim quyidagilarni ta'kidlaydi: "korrupsiya hodisasi inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq tovarlar va xizmatlardan foydalanishga halokatli ta'sir ko'rsatadi. Bu turli sohalarida, ayniqsa, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda va qonun ustuvorligini ta'minlash jarayonlarida davlat siyosatini amalga oshirishga putur yetkazadi. Korrupsiya tufayli, birinchi navbatda, aholining eng zaif insonlari va qatlamlari zarar ko'radi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish inson huquqlari sohasidagi me'yorlarga muvofiq bo'lishi kerak. Inson huquqlari sohasidagi me'yorlar, tamoyillar va mexanizmlar korrupsiyaga qarshi kurashish choralari samaradorligini oshiradi. Korrupsiya insonning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish yo'lidagi eng katta to'siq hisoblanadi. Korrupsiya insonning ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik, kamsitmaslik va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ishtirok etishi bilan bog'liq huquqlarini himoya qilish tamoyillarini buzadi. Ushbu tamoyillarga rioya qilish korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Taqdim etilgan "korrupsiya" tushunchalarini tahlil qilish orqali siyosiy sohada va umuman davlat faoliyatida korrupsiyaning asosiy alomatlarini ajratib olish mumkin. Shunday qilib, tahlil asosida biz korrupsiyaning quyidagi alomatlarini aniqladik.

Birinchidan, korrupsiya davlat va/yoki jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilish uchun mansabdor shaxsga hokimiyat vakolati berilgan joylarda amalga oshirilishi mumkin. Mazkur holatda, mansabdor shaxsga vakolat bergan davlat hokimiyati, korporatsiya yoki jamoat birlashmasi u amaldagi qonunchilikka muvofiq harakat qiladi va o'z mansab vakolatlaridan lozim darajada, ya'ni davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari ko'zlab qo'llaydi deb o'ylaydi.

Ikkinchidan, korrupsiyaning asosiy belgilaridan biri bo'lib ijtimoiy manfaatlarni emas, balki bir shaxs, uning oilasi yoki tor doiradagi odamlar guruhi manfaatlari qanoatlantirishga qaratilgan moddiy va nomoddiy boyliklarni olish maqsadida mansabdor shaxs tomonidan o'z vakolatlaridan shaxsiy foyda olish, g'arazli manfaatni ko'zlab foydalanish hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, poraxo'r jamiyat tomonidan unga ishonib topshirilgan vakolatni g'arazli maqsadlarda moddiy va nomoddiy boyliklarga aylantiradi.

Uchinchidan, poraxo'rning harakatlari yoki harakatsizligi har doim noqonuniy, qonunga ziddir va poraxo'r bundan yaxshi xabardor. U noqonuniy, jamoat manfaatlariga zid harakat qilayotganini, uning nojo'ya ishi jamiyatga qarshi xususiyatga ega ekanligini biladi, tushunadi va anglaydi, lekin u baribir moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar evaziga o'z jinoyatini oxiriga yetkazadi.

To'rtinchidan, korrupsiya davlat tuzumini zaiflashtiradi, chunki mansabdor shaxs davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi kerak bo'lgan davlat va jamiyat tomonidan berilgan vakolatlarni tor doiradagi g'arazli maqsadlarda foydalanadi va bu bilan u davlat vazifalarini

hal qilish, davlat strategiyasini ilgari surishda qo'shishi kerak bo'lgan hissani qo'shmaydi. Davlatning funksiyalari bajarilmagan yoki to'liq bajarilmaganligicha qolaveradi, vazifalar hal qilinmagan, maqsadlarga erishilmaganligicha qolaveradi va bularning barchasi davlat va umuman siyosiy tuzumni zaiflashtirgan holda davlat xizmatlarini ko'rsatish sifatiga, davlat mexanizmining ishiga ta'sir qiladi.

Beshinchidan, korrupsiya natijasida aholining ijtimoiy eng zaif qatlamlariga, ularning huquq va manfaatlariga zarar yetkaziladi. Korrupsiya insonning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmiga zarar keltiradi. Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e'lon qilinganligi hisobga olinsa, korrupsiya jamiyatning konstitutsiyaviy asoslariga putur yetkazadi va davlatda konstitutsiyaviy tamoyillarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi.

Oltinchidan, korrupsiya kengayib ketishga va tobora ko'proq davlat va jamoat tuzilmalarini qamrab olishga qodir, bu bilan dastlabki vaqtlarda o'z majburiyatlarini lozim darajada bajargan mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilari va jamoat arboblari zarur keltiradi. Korrupsiyani yashirib bo'lmaydi va agar bitta mansabdor shaxs korrupsiyaga moyil bo'lsa, u, odatda, bunga o'zining bo'ysunuvchilari va o'zidan yuqori turuvchi shaxsni ham jalb qiladi va shu tariqa bir emas, balki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni korrupsiya girdobiga tortadi, ular ba'zan o'z burchini bajarayotgan, korrupsiyaga qarshi kurashayotgan halol xodimlarni "domiga tortib ketadi". Aynan shuning uchun korrupsiya davlat mexanizmidagi saraton o'simtasiga o'xshaydi, u o'sib, sog'lom a'zolariga ham tarqab ketadi.

Yettinchidan, korrupsiyaning eng salbiy jihatlaridan biri bu odamlarning adolatli davlat va normal jamiyatga bo'lgan ishonchiga putur yetkazish hisoblanadi. Fuqarolar davlat va jamoat organlari, hatto maktablar, kasalxonalar, bolalar bog'chalariga murojaat qilishganda, aholi tovlamachilik, maishiy korrupsiyaga duch kelishadi. Adolatni tiklash uchun sud organlariga murojaat qilganlarida — ular yana korrupsiyaga duch kelishadi, bu odamlarda umidsizlik hissini uyg'otadi. Shu tarzda odamlar eng muhim narsani — davlatning adolatli ekaniga bo'lgan ishonchni yo'qotadilar va shu tariqa huquqiy, ijtimoiy davlat tobutining qopqog'i yopilib, mix qoqiladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va yuqorida qayd etilgan korrupsiya alomatlarini ko'rib chiqish asosida biz quyidagi ta'rifni taqdim etamiz.

Korrupsiya — bu mansabdor shaxs yoki shaxslar tomonidan davlat funksiyalarini amalga oshirish, ijtimoiy vazifalarni hal qilish, strategik maqsadlarga erishish uchun o'zlariga berilgan vakolatlarni o'z manfaatlariga yoki bir guruh odamlar manfaatlarini qanoatlantirish maqsadida moddiy va nomoddiy boyliklarga noqonuniy ravishda aylantirish bo'lib, u jamiyatga qarshi ishlaydigan oqibatlarga olib keladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2025-yil 05-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi yig'ilishidagi nutq (Mirziyoyev Sh.M. Speech at the meeting of the National Anti-Corruption Council on March 5, 2025 // <https://president.uz/ru/lists/view/7924>) // <https://president.uz/ru/lists/view/7924>
2. Siyosatshunoslik: Lug'at-ma'lumotnoma. — M., 2001. — 124 b. (2. Political Science: Dictionary-reference book. — M., 2001).
3. Ensiklopedik lug'at: 86-ta jildda. / F. A. Brokgauz, I. A. Yefron nashriyoti. - Repr. nashr. - SPb. : Polradis, 1993. 473 b.- 470 b. (Encyclopedic dictionary: in 86 volumes. / F. A. Brockhaus, I. A. Efron publishing house. - Repr. ed. - SPb. : Polradis, 1993. 473 p.- 470 p.)
4. Aminov D.I., Gladkix V.I., Solovyov K.S. Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida va uni bartaraf etish yo'llari. — M., 2002. — 127 b. (Aminov D.I., Gladkikh V.I., Solovyov K.S. Corruption as a socio-legal phenomenon and ways to eliminate it. — M., 2002. — 127 p.)
5. Lokk Dj. Socheniya: V 3 t. / Dj. Lokk. — M.: Mysl, 1988. T. 3. — 298 s. (Locke Dj. Sochinenia: V 3 t. / Dj. Locke. - M.: Mysl, 1988. T. 3. — 298 p.)
6. Адилходжаев Ш. К вопросу об определении понятия «коррупции» // Экономика и социум, 2026, №4 (143), С.834-838 (Adilkhodjaev Sh. On the issue of defining the concept of "corruption" // Economy and Society, 2026, No. 4 (143), pp. 834-838).

7. “Korrupsiya” mavzusidagi ilmiy ma’ruzalar, xabarlar va uslubiy tavsiyalar. / Nashr uchun mas’ul: yu.f.n. R.T. Hakimov. Toshkent. 2001. (“Korrupsiya” mavzusidagi ilmiy ma’ruzalar, xabarlar va uslubiy tavsiyalar. / Nashr uchun mas’ul: yu.f.n. R.T. Hakimov. Toshkent. 2001).
8. Andrianov V.D. Byurokratiya, korrupsiya va davlat boshqaruvi samaradorligi: tarix va hozirgi zamon. M., 2009. (Andrianov V.D. Byurokratiya, korrupsiya va davlat boshqaruvi samaradorligi: tarix va hozirgi zamon. M., 2009. 37 b).
9. Chernov Ye.N. Korrupsiya va uning davlat xizmatchilari martabasining ko’tarilishiga salbiy ta’siri // Yosh olim. 2013. №12. 798-801 b. (Chernov Ye.N. Korrupsiya va uning davlat xizmatchilari martabasining ko’tarilishiga salbiy ta’siri // Yosh olim. 2013. No. 12. 798-801 b).
10. Du Chijichou杜治洲. Minchjun yuy fanfu 民众与反腐[Xalq ommasi va korrupsiyaga qarshi kurashish] sinxua chubanshe 新华出版社. 2015.(Du Zhichijoudùzhìzhōu. Minchjun yuy fanfu mínzhòngyǔfǎnfǔ[The people and the fight against corruption] Xinhua chubanshe xīnhuáchūbǎnshè. 2015.)
11. Пимкина Д.И Понятие и виды коррупции // Russia in the global world № 19 (42) 2021, С.27-36. (Pimkina D.I Ponyatie i vidy korrupsii // Russia in the global world No. 19 (42) 2021, P.27-36.)
12. Максимов В.К. Понятие коррупции (криминологический аспект) и меры ее предупреждения в государственном аппарате. Автореф. на соиск. уч.ст. к.ю.н. М., 2005. 31 с., (Maksimov, V.K. The Concept of Corruption (Criminological Aspect) and Measures for Its Prevention in the Government Apparatus. Abstract of a PhD Candidate's Dissertation. Moscow, 2005. 31 pages, .)
13. Фиалковская И.Д. Коррупция: понятие, признаки, виды // Право: Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского. 2018. №1. С. 137–142. (Fialkovskaya I.D. Corruption: concept, signs, types // Law: Bulletin of the Nizhny Novgorod University named after N.I. Lobachevsky. 2018. No. 1. P. 137–142)[эл. доступ] URL: http://www.unn.ru/pages/e-library/vestnik/19931778_2018_-_1_unicode/19.pdf (дата обращения: 09.02.2021)/
14. Бирюков А.В. Антикоррупционная правовая политика России: история и современность. Автореф. На соиск.уч.ст. к.ю.н. Краснодар, 2014, 25 с., С.12. (Biryukov A.V. Anti-corruption legal policy of Russia: history and modernity. Abstract of a dissertation by candidate of legal sciences. Krasnodar, 2014, 25 p., p. 12.)
15. Saidov A.X. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati: xalqaro standartlar va milliy tizim. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi o‘rinbosarining ma’ruzasi // doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2 (Saidov A.Kh. Anti-corruption policy of the Republic of Uzbekistan: international standards and national system. Report of the Deputy Chairman of the National Anti-Corruption Council of the Republic of Uzbekistan // doi.org/10.47689/uacd-2181-3345--vol2)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.